Hozirgi kunda O'zbekiston oldida iqtisodiy rivojlanish sifatini tubdan o'zgartirish vazifasi turibdi. Iqtisodiy o'sishni xomashyo yetishtiruvchi tarmoqlar va ularning mahsulotini eksport qilish hisobiga emas, balki ilm talab qiluvchi omillar asosida ta'minlash, innovatsion turdagi iqtisodiyotni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xomashyo yetishtiruvchi tarmoqlarga tayangan rivojlanish modeli yetarli darajada samarali emas bo'lib, u uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanish sharoitlarini to'liq ta'minlab bera olmaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (Food and Agriculture Organization — FAO) baholashiga ko'ra, tobora o'sib borayotgan talabni qondirish uchun 2050-yilga kelib qishloq xo'jaligi tarmog'i tomonidan 2012-yilga nisbatan qariyb 50 foizga ko'proq oziq-ovqat mahsulotlari, yem-xashak va bioyoqilg'i ishlab chiqarilishi zarur bo'ladi. Agar o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlar ko'rilsa, ushbu yuqori talabni qondirish jiddiy muammoga aylanmaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining eng yuqori o'sish sur'atlari 1960-2015-yillar oralig'ida kuzatilgan bo'lib, ushbu davrda dunyo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi uch barobardan ortiq oshgan (FAO, 2017). Biroq iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarga bo'lgan bosimning kuchayishi, qishloq xo'jaligiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmining yetarli emasligi hamda texnologik cheklovlar tufayli ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini saqlab qolish tobora murakkablashib bormoqda.

Shu sharoitda faqat innovatsiyalar va jadal texnologik rivojlanish oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni barqaror asosda qondirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunga esa investitsiyalar hajmini oshirish hamda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan samarali davlat siyosati orqali erishish mumkin. Ushbu yondashuv ishlab chiqarish unumdorligining mavjud darajasini saqlab qolish, daromadlilikni barqaror oshirish hamda kambag'allikni izchil qisqartirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

"Har bir investor O'zbekiston deganda, eng avvalo, barqarorlik va kelajakka ishonchni tasavvur qilishi uchun intilayapmiz", — degan fikrlar mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning mazkur yo'nalishdagi dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, barqaror qishloq xo'jaligi — bu qishloq xo'jaligini barqaror tarzda yuritish bo'lib, bunda oziq-ovqat va tekstil mahsulotlariga bo'lgan jamiyatning bugungi kundagi ehtiyojlari qondiriladi hamda hozirgi va kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari xavf ostiga qo'yilmaydi [1]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish tushunchasi ostida barqaror usullar asosida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni tushunadi.

Bir guruh polyak olimlarining fikricha, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: qishloq xo'jaligi xodimlarining munosib turmush darajasini ta'minlash; atrof-muhitni ifloslantirmaydigan va ekologik xavflarni keltirib chiqarmaydigan ishlab chiqarish usullariga erishish; imkon qadar qayta tiklanuvchi resurslardan maksimal darajada foydalanish; qishloq sotsiumini va an'anaviy turmush tarzini saqlab qolish; chorvachilik faoliyatida etik tamoyillarni hisobga olish [2].

Fikrimizcha, mamlakat qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlash to'rt guruh omillarning, jumladan ekologik-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnologik hamda ijtimoiy-ekologik-iqtisodiy omillarning kompleks ta'siri natijasidir. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning strategik yo'nalishi sifatida qishloq xo'jaligi ekinlari va chorvachilik mahsuldorligining tabiiy hamda biologik omillarini maksimal darajada ishga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi omillar guruhlari ichida to'rtinchi guruh — ijtimoiy-ekologik-iqtisodiy omillar (investitsiyaviy resurslar, qishloq hududlarining rivojlanganlik darajasi, hududdagi ekologik vaziyat) alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu guruh doirasida investitsiyaviy resurslar omili quyida batafsil ko'rib chiqiladi [3].

Qishloq xo'jaligida qiymat zanjiri va moliyalashtirish masalalari, shuningdek past foizli va uzoq muddatli kreditlarning iqtisodiy samaradorligini asoslab beruvchi tadqiqotlar bilan Johan Swinnen, C. Peter Timmer, A.V. Vaxabov kabi olimlar shug'ullangan. Agrosug'urta va davlat subsidiyalari, qishloq xo'jaligi subektlariga sug'urta mukofotlarini qoplab berish mexanizmlari Olivier Mahul, C. Stutley, B.B. Ma'murovlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Inson kapitali va innovatsiyalar transferi, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish hamda ularning xarajatlarini kompensatsiya qilish, shuningdek "bilimlar iqtisodiyoti" konsepsiyasi Gary S. Becker, Everett M. Rogers, J.R. Anderson va I.S. Tuxsanov tadqiqotlarida keng tahlil qilingan.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, sohada faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari doimiy ravishda imtiyozli kredit resurslari bilan ta'minlanadi hamda ushbu mexanizmlarning shakllari har bir davlatda o'ziga xos yondashuv va xususiyatlarga ega. Imtiyozli kreditlashdan ko'zlangan asosiy maqsad fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish faoliyati uchun maksimal darajada qulay sharoit yaratishdan iborat bo'lib, bunda kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining ma'lum bir qismini davlat budjeti hisobidan qoplab berish asosiy tamoyil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotimiz doirasida quyidagi takliflar ilgari suriladi: mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan tijorat banklari orqali milliy valyutada, asosiy stavkasi 4 foiz bo'lgan, 10 yil muddatga (5 yillik imtiyozli davr bilan) oziq-ovqat yo'nalishida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish; meva-sabzavotchilik klasterlari va eksport shartnomalariga ega fermer xo'jaliklari tomonidan hosilni xavf-xatarlardan sug'urtalash xizmatlaridan foydalanilganda to'langan sug'urta mukofotining 50 foizini, biroq sug'urta summasining 1 foizidan oshmagan qismini qoplab berish; meva-sabzavotchilik klasterlariga xorijdan malakali agronomlar, entomologlar va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizini, biroq bir nafar mutaxassis uchun oyiga 1 000 AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan miqdorda Qishloq xo'jaligi vazirligining tuman bo'limlari orqali kompensatsiya qilish. Quyida mazkur takliflar batafsil asoslab beriladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, taqqoslash, tizimli tahlil, regressiya tahlili, ekspert baholash hamda iyerarxik tahlil usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga kiritilgan investitsiyalar samaradorligini baholash maqsadida Andijon viloyati, Andijon tumanida joylashgan "Orol bog'boni" fermer xo'jaligining investitsiyaviy faoliyati tahlil qilindi. Mazkur fermer xo'jaligi Andijon tumani hokimining 2011-yil 10-oktyabrdagi 0262-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan bo'lib, "Orol" QFY hududida joylashgan va paxtachilik-g'allachilik hamda chorvachilik yo'nalishlariga ixtisoslashgan. Shuningdek, fermer xo'jaligi respublika qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan ham shug'ullanadi. Fermer xo'jaligi rahbari — Abdullayev Nodirjon.

"Orol bog'boni" fermer xo'jaligi tomonidan 2022-yilda Agrobank imtiyozli kreditlari (10 yil muddatga, yillik 10 foiz stavkada) hisobidan fermer xo'jaligi faoliyatini rivojlantirish hamda yetishtirilayotgan boshoqli don va paxta ekinlari tannarxini pasaytirish maqsadida 390 mln so'mlik qishloq xo'jaligi texnikasi sotib olingan. Ushbu investitsiyaning fermer xo'jaligi faoliyatiga ta'siri quyida tahlil qilinadi.

Fermer xo'jaligida texnik qurollanganlik darajasining pasayishi yerga sifatsiz va chala ishlov berilishiga, agrotexnik tadbirlarning belgilangan muddatlarda bajarilmasligiga hamda hosildorlikning kamayishiga olib keladi. Shuningdek, yoqilg'i tejash maqsadida yerlarni shamol va suv eroziyasidan himoyalash bo'yicha tadbirlarning to'liq bajarilmasligi chang bo'ronlarining yuzaga kelishiga va unumdor yer qatlamining yuvilib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda Andijon viloyatidagi ko'plab fermer xo'jaliklarida texnika parkini yangilash uchun o'z mablag'lari yetarli emas. Shu bois yangi texnika sotib olishga muqobil variant sifatida xizmat ko'rsatuvchi firmalar (mashina-traktor parklari) texnikalaridan shartnoma asosida, ma'lum haq evaziga foydalanish amaliyoti mavjud. Ushbu firmalarda yer haydash, ekish, kultivatsiya qilish va hosil yig'ishtirish kabi agrotexnik tadbirlar uchun maxsus texnikalar bo'lib, traktorlarning ekspluatatsiya xarajatlari firma tomonidan qoplanadi. Biroq ushbu usulning kamchiligi shundan iboratki, mavsumiy tig'iz davrlarda texnikalar yetishmasligi sababli xizmatlar navbat asosida ko'rsatiladi, bu esa agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida bajarilmasligiga va natijada hosildorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli qishloq xo'jaligi texnikasini kredit mablag'lari hisobidan sotib olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritishda xizmat ko'rsatuvchi firmalar texnikasidan foydalanish varianti bilan o'z texnikasidan foydalanish varianti solishtirilganda, ikkinchi variant iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanligi aniqlangan [4].

Natijada respublikamizda davlat tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2022-yilda fermer xo'jaliklari tomonidan qishloq xo'jaligi texnikalarini sotib olish uchun Agrobank orqali imtiyozli kredit resurslari ajratildi. Mazkur tahlilda ma'lumot manbai sifatida "Orol bog'boni" fermer xo'jaligining 2021-2023-yillar uchun moliyaviy hisobotlaridan foydalanildi.

2021-yilda fermer xo'jaligi tomonidan 5 150,0 ming so'm sof foyda olingan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 32 335,0 ming so'mni, 2023-yilda esa 29 885,0 ming so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar nisbatan past darajada bo'lib, 2023-yilda "kelgusi davr xarajatlari" moddasi bo'yicha 207 343,5 ming so'm miqdorida mablag' aks ettirilgani sof foydaning real darajasi amalda bundan ham past bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Fermer xo'jaligining moliyaviy holatini yanada aniqroq baholash imkonini beruvchi nisbiy ko'rsatkichlar dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. "Orol bog'boni" fermer xo'jaligining investitsiyaviy faoliyati natijasida uning moliyaviy ko'rsatkichlari o'zgarishi [5].

| № | Ko'rsatkichlar | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|---|---|
| 1 | To'lov qobiliyati (qoplash) koeffitsiyenti | 1,25 | 1,42 | 0,89 |
| 2 | O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti | 0,20 | 0,30 | -0,53 |
| 3 | Xarajatlarning rentabellik koeffitsiyenti | 0,01 | 0,04 | 0,10 |
| 4 | O'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbat koeffitsiyenti | 0,28 | 0,45 | 0,22 |

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, eng e'tiborga molik jihat "Orol bog'boni" fermer xo'jaligida 2023-yilda xarajatlar rentabelligi koeffitsiyenti bo'yicha holatning nisbatan yaxshilana boshlaganidir. Xususan, ushbu ko'rsatkich uch yil avvalgi 0,01 darajadan 0,10 gacha oshgan. Ma'lumki, agar rentabellik ko'rsatkichi 0,05 dan past bo'lsa, xo'jalik past rentabelli hisoblanadi. Mazkur jihatdan ijobiy siljish kuzatilgan bo'lsa-da, boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha holatning yomonlashganini ko'rish mumkin.

Jumladan, 2023-yilda to'lov qobiliyati ko'rsatkichi 0,89 gacha pasaygan bo'lib, bu 1,25 dan past daraja moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan qoniqarsiz hisoblanadi. Shuningdek, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi -0,53 gacha tushib ketgan, holbuki ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasi kamida 0,2 bo'lishi lozim. O'z va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbat koeffitsiyenti dastlab o'sish tendensiyasini ko'rsatgan bo'lsa-da, keyinchalik 0,22 gacha pasaygan. Mazkur ko'rsatkich qarz majburiyatlarini o'z manbalari hisobidan qoplash imkoniyatini ifodalaydi va uning 1 dan past bo'lishi korxonada moliyaviy tavakkalchilik mavjudligini anglatadi. Demak, ushbu ko'rsatkich bo'yicha ham fermer xo'jaligining moliyaviy holati qoniqarli emas.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, 2023-yil yakunlariga ko'ra fermer xo'jaligining moliyaviy holati barqaror emas. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: mol yetkazib beruvchilar oldidagi 468 mln so'mlik qarzdorlik, 331 mln so'mlik sotilmay qolgan tayyor mahsulot zaxiralari, 207 mln so'mlik kelgusi davr xarajatlari hamda 627,6 mln so'm miqdoridagi kredit va foizlar bo'yicha bank oldidagi uzoq muddatli qarzdorlik. Ushbu holatlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, fermer xo'jaligining diversifikatsiya yo'li bilan yuqori qo'shilgan qiymatga ega, bozorbop va eksportbop mahsulotlar yetishtirishga ixtisoslashuvi maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligida investitsion muhitni yaxshilash va risklarni samarali boshqarish borasida rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot doirasida Isroil, Turkiya va Chili kabi davlatlarning samarali modellari tahlil qilindi.

Isroil qishloq xo'jaligida investitsiyalar samaradorligi "ishlab chiqarish – saqlash – qayta ishlash" qiymat zanjirining uzluksiz moliyalashtirilishi bilan izohlanadi. Ushbu mamlakatda investitsion siyosat xalqaro moliyaviy resurslarni tijorat banklari orqali imtiyozli shartlarda, uzoq muddatli (10-15 yil) va past foiz stavkalarida yo'naltirishga asoslangan. Bunda asosiy e'tibor nafaqat hosil yetishtirishga, balki yuqori texnologiyali qayta ishlash quvvatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Tadqiqotimizda ilgari surilgan xalqaro moliya institutlari mablag'larini milliy valyutada 4 foizlik stavkada yo'naltirish taklifi mazkur model bilan mantiqan uyg'unlashadi.

Isroilda "Smart Money" tamoyili va qo'shilgan qiymat zanjirini moliyalashtirish tizimi hosildorlikni jahon miqyosida eng yuqori darajalarga olib chiqdi. Innovatsion moliyalashtirish va suv tejovchi texnologiyalar hisobiga issiqxona sharoitida pomidor hosildorligi 1 gektardan 300 tonnagacha yetkazildi (an'anaviy usullarda bu ko'rsatkich o'rtacha 50-80 tonnani tashkil etadi). Islohotlar natijasida Isroil xom mahsulot eksportidan qayta ishlangan va yuqori qiymatga ega mahsulotlar eksportiga o'tdi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportidan olinadigan daromad oxirgi 20 yilda 2,2 mlrd AQSh dollaridan oshdi. Suvdan foydalanish samaradorligi ham 40 foizga oshdi. Bunda asosiy omil imtiyozli kreditlar va texnologiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'ldi.

Tadqiqotning iqtisodiy samaradorlik qismida taklif etilayotgan chora-tadbirlar joriy etilganda O'zbekiston qishloq xo'jaligida kutiladigan o'zgarishlar prognoz qilindi. Xususan, xorijiy kreditlarni 4 foizlik stavkada 10 yil muddatga berish qayta ishlash quvvatlarini sezilarli oshiradi. Hozirda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash darajasi 15-20 foizni tashkil etsa, prognozlarga ko'ra, 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 35-40 foizga yetishi mumkin. Natijada tayyor mahsulot eksporti hisobiga har bir tonna mahsulotdan olinadigan eksport tushumi o'rtacha 1,8 barobarga oshadi.

Turkiya tajribasida qishloq xo'jaligini sug'urtalashda davlat-xususiy sheriklik tamoyili muhim o'rin tutadi. 2005-yilda tashkil etilgan TARSİM tizimi sug'urta mukofotining 50 foizini davlat byudjeti hisobidan qoplash orqali fermerlarning moliyaviy yukini kamaytirdi va banklarning kredit risklarini minimallashtirdi. Ushbu mexanizm sug'urta qamrovini kengaytirib, eksport hajmining 2005-yildagi 1,6 mlrd dollardan 2022-yilda 3,5 mlrd dollargacha oshishiga xizmat qildi. Tabiiy ofatlar oqibatida yetkazilgan zararlarning 70-80 foizi fermerlarga qaytarilishi ularning moliyaviy barqarorligini ta'minladi.

Chilining texnologiyalar transferi dasturi xorijiy ekspertlarni jalb qilish orqali qishloq xo'jaligida raqobatbardoshlikni oshirishning samarali modeli hisoblanadi. Ushbu dastur doirasida xorijiy agronom va laboratoriya mutaxassislarining xarajatlari 50 foizgacha kompensatsiya qilinadi. Natijada mahsulot tannarxi sezilarli pasaymagan bo'lsa-da, uning eksportboplik darajasi 2-3 barobarga oshdi va Chili qisqa muddat ichida dunyodagi yetakchi meva eksportchilaridan biriga aylandi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun quyidagi uch omilning integratsiyasi zarur:

1. uzoq muddatli va arzon kreditlar (Isroil modeli);
2. davlat subsidiyasiga asoslangan sug'urta tizimi (Turkiya modeli);
3. texnologik konsaltingni qo'llab-quvvatlash (Chili modeli).

2-jadval. Qiyosiy prognoz jadvali (2026-2028-yillar uchun) [6]

| № | Ko'rsatkichlar | Joriy holat (taxminiy) | Prognoz (taklif joriy etilsa) | Iqtisodiy samara |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Qayta ishlash darajasi | 18% | 35% | Qo'shilgan qiymatning 2 barobar o'sishi |
| 2 | Sug'urtalangan maydonlar | 7% | 30% | Moliyaviy risklarning pasayishi |
| 3 | O'rtacha hosildorlik (intensiv) | 100% (baza) | 130% | Mahsulot hajmining 30% ga ko'payishi |
| 4 | Eksport tushumi (1 tn uchun) | $600–700 | $1,100–1,200 | Valyuta tushumining sezilarli o'sishi |

Tadqiqotimizda quyidagi soddalashtirilgan iqtisodiy samaradorlik formulasini qo'lladik:

$$E = \frac{(Vp - Vc) + Is}{Cinv}$$

Bu yerda: E – investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi;
$V_p$ – prognoz qilinayotgan ishlab chiqarish hajmi (ya'ni, taklifimizdan keyingi o'sish);
$V_c$ – joriy ishlab chiqarish hajmi;
$I_s$ – sug'urta kompensatsiyasi hisobiga saqlab qolingan mablag'lar;
$C_{inv}$ – yo'naltirilgan imtiyozli investitsiyalar hajmi.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi.

1. Moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha

- mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida xalqaro moliya institutlari mablag'larini tijorat banklari orqali milliy valyutada, yillik 4 foiz stavkada, 10 yil muddatga (5 yillik imtiyozli davr bilan) ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi;
- kutilayotgan natija: mazkur past foizli va uzoq muddatli moliyaviy resurslar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish imkonini beradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, bu meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjiri samaradorligini o'rtacha 1,8 barobarga oshiradi.

2. Agrosug'urta mexanizmini takomillashtirish bo'yicha

- eksport shartnomasiga ega bo'lgan klasterlar va fermer xo'jaliklari uchun sug'urta mukofotining 50 foizini (biroq sug'urta summasining 1 foizidan oshmagan qismini) davlat tomonidan qoplab berish tizimini joriy etish zarur;
- TARSİM tizimi tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur yondashuv sug'urta qamrovini 30 foizgacha oshiradi hamda tabiiy ofatlar sharoitida qishloq xo'jaligi subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Inson kapitali va innovatsiyalar transferini rivojlantirish bo'yicha

- meva-sabzavotchilik klasterlariga xorijdan yuqori malakali agronomlar, entomologlar va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizini (bir nafar mutaxassis uchun oyiga 1 ming AQSh dollari ekvivalentigacha) Qishloq xo'jaligi vazirligi orqali kompensatsiya qilish taklif etiladi;
- iqtisodiy samara: xorijiy bilim va texnologiyalarni jalb etish hisobiga mahsulotlarning eksportboplik darajasi (GlobalGAP va boshqa xalqaro standartlarga muvofiqlik) 40 foizdan 85 foizgacha oshadi, hosildorlik esa o'rtacha 25-30 foizga ko'tariladi.

4. Umumiy iqtisodiy samaradorlik

Taklif etilayotgan chora-tadbirlar majmuasi qishloq xo'jaligiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning qaytish koeffitsiyentini (ROI) oshirish bilan bir qatorda, sohada barqaror "investitsion jozibadorlik" muhitini shakllantiradi. Natijada 2030-yilga qadar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini hozirgi 18 foizdan 35-40 foizgacha yetkazish uchun mustahkam iqtisodiy asos yaratiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan tijorat banklari orqali milliy valyutada, yillik 4 foizli asosiy stavkada, 10 yil muddatga (5 yillik imtiyozli davr bilan) oziq-ovqat yo'nalishida qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish maqsadga muvofiq deb topildi.

Shuningdek, meva-sabzavotchilik klasterlari va fermer xo'jaliklari eksport shartnomasiga ega bo'lgan holda meva-sabzavot hosilini xavf-xatarlardan sug'urtalash xizmatidan foydalanganda, to'langan sug'urta mukofotining 50 foizini, biroq sug'urta summasining 1 foizidan oshmagan qismini davlat tomonidan qoplab berish tizimini joriy etish taklif etildi. Bundan tashqari, meva-sabzavotchilik klasterlariga xorijdan yuqori malakali agronomlar, entomologlar va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizini, biroq bir nafar mutaxassis uchun oyiga 1 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan qismiga Qishloq xo'jaligi vazirligining tuman bo'limlari orqali kompensatsiya to'lash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Fikrimizcha, qishloq xo'jaligini rivojlantirishning strategik yo'nalishi sifatida qishloq xo'jaligi ekinlari va chorvachilik mahsuldorligining tabiiy hamda biologik omillaridan maksimal darajada samarali foydalanish lozim. Tadqiqotlar natijasida Andijon viloyatida oziq-ovqat iste'molining ratsional iste'mol me'yorlariga mosligi tahlil qilinganda, go'sht mahsulotlari va tuxum bo'yicha iste'mol hajmi tibbiyot mutaxassislari tavsiya etgan me'yorlardan past ekanligi aniqlandi. Shu bois kelgusida sog'lom va barkamol avlodni shakllantirish maqsadida ushbu mahsulotlar taklifini oshirish, buning uchun esa chorvachilik xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, subsidiyalar ajratish hamda yaylovlarni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni qo'shimcha moliyalashtirish zarur hisoblanadi.

Andijon viloyatida 2017-2021-yillarda qishloq xo'jaligida o'zlashtirilgan investitsiyalar manbalari tahlili shuni ko'rsatdiki, xorijiy manbalar tarkibida xorijiy kreditlar ulushi 81,9 foizni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa atigi 18,1 foizni tashkil etgan. Mazkur holat to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish zarurligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan hududlarning investitsiya salohiyati, mavjud imkoniyatlari va investorlar uchun muhim bo'lgan barcha axborotlarni qamrab olgan investitsiya portallarini yaratish va doimiy ravishda yangilab borish, shuningdek, har bir hududning investitsiya salohiyatini aks ettiruvchi tayyor investitsiya takliflari ro'yxatini shakllantirib, ularni xorijiy investorlarga tavsiyaviy tarzda taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, barqaror moliyalashtirishning umumqabul qilingan xalqaro tamoyillarini milliy amaliyotga joriy etish hamda mamlakatda "yashil" moliyalashtirish bozorini shakllantirish zarur. Xorijiy tajriba tahlili "yashil" obligatsiyalar va qarzlar ekologik loyihalarni moliyalashtirishning samarali moliyaviy instrumentlari ekanligini ko'rsatadi. Shu bois davlat tomonidan emitentlar va investorlarning "yashil" obligatsiyalarni chiqarish va sotib olishga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiluvchi huquqiy, tashkiliy, uslubiy, axborot, konsultatsion hamda rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar asosida tuzilgan ekonometrik model natijalariga ko'ra, 2030-yilgacha investitsiyalar hajmining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Prognoz natijalari kelgusida ishchi kuchi va ekin maydonlari qisqarib borishini ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga mehnat unumdorligi va hosildorlikni oshirish, shuningdek, ekinlar diversifikatsiyasi orqali erishish mumkin. Shu nuqtai nazardan, mehnat unumdorligini oshirish uchun "aqlli" qishloq xo'jaligi texnologiyalariga investitsiyalarni yo'naltirish, hosildorlikni oshirish uchun esa urug'chilik tizimi va chorvachilik xo'jaliklarini qo'shimcha moliyalashtirish zarur hisoblanadi. Ekin maydonlarining keskin qisqarib ketishining oldini olish maqsadida sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining qisqarishini qat'iy nazoratga olish lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, "O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligini investitsiyaviy rivojlantirish to'g'risida" alohida qonun qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, investitsiyalarni hududlarning "o'sish nuqtalari"ni belgilovchi, suvni kam sarf etuvchi istiqbolli qishloq xo'jaligi tarmoqlariga oqilona yo'naltirish, tumanlarning tuproq-iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashuvni kuchaytirish, noyob va yuqori qiymatli gullar hamda dorivor o'simliklar yetishtirishni rivojlantirish orqali jahon bozorida raqobatbardosh va noyob mahsulotlar segmentida mamlakatimizning mustahkam o'rnini shakllantirish mumkin bo'ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Xolmatov S.X. Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari // Tafakkur manzili. 2022. №52. 1-jild, 2-qism. B. 71-83. ISSN 2180-2160.
2. Xolmatov S. Investitsiyalarning qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishdagi yo'nalishlari // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. 2022. Vol. 2, Issue 13 (December). ISSN 2181-2853. DOI: 10.5281/zenodo.7482867.
3. Xolmatov S.X. Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023. №11-12. B. 1168-1173. ISSN 2992-8982.
4. Понедельников В.В. Инвестиционное обеспечение устойчивого развития аграрного производства: дис. канд. экон. наук: 08.00.05 (на материалах Ставропольского края). М.: РГЭ, 2006. Электронный ресурс (РГБ).
5. Ko'rsatkichlar muallif tomonidan fermer xo'jaligi hisobotlari asosida quyidagi hujjatga muvofiq hisoblangan: "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida": O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2018-yil 14-dekabr, №1013. Manba: www.lex.uz.
6. Vaxabov A.V., va boshq. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2021. 320 b.
7. Ma'murov B.B. Qishloq xo'jaligida sug'urtalash tizimini takomillashtirish. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. 160 b.
8. Tuxsanov I.S. Agroklasterlar boshqaruvida innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022. 198 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. Manba: www.stat.uz.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 2**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz